

**TURKISTONDA HARBIY SANOAT QO'MITALARINING VUJUDGA KELISHI,
ULARNING QO'SHIN TA'MINOTIDAGI ROLI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7829786>

Abduazizov Husniddin Ismat o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turksiton o'lkasida harbiy sohaning rivoji va sanoat qo'mitalarining vujudga kelishi, ularning ishlash prinsiplari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *A. I. Guchkov, A. I. Konovalov Selekatar jinsi, S. I. Davidov, harbiy pech, selitra, metall yetkazib berish, harbiy, Maxsus Kengash, harbiy asir, pud.*

Annotation: *This article provides information on the development of the military sector and the establishment of industrial committees in the Turksiton region, as well as the principles of their work.*

Key words: *A. I. Guchkov, A. I. Konovalov Selekatar genus, S. I. Davidov, military furnace, saltpeter, metal supply, military, Special Council, prisoner of war, pud.*

1915-yilning bahor va yoz oylari qo'shinni qurol-yarog` bilan taminlashdagi eng og'ir davr bo'ldi. Harbiy zaxiralar tugab yangilarini ishlab chiqarishni tashkil etish xanuz yo'lga qo'yilmagan edi. Urush harakatlari ishtirokchilari armiyadagi holatini shunday izoxlashdi. Qo'shinga artileriya snaryadlari va o'qdorilari borasida kugli etishmoqda ovchiliklar mavjud. Biz insonlar tanasi bilan kurashmoqdamiz, ular buni tushunib etishmoqda va bu achinarli oqibatlarga ega bo'lishi mumkin.[1]

Mana shunday murakkb va og'ir vaziyatga rus burjuaziya bosh ko'tarib, malakat ichkarisidagi kuchlarni harbiy - iqtisodiy safarbarlik borasidagi ishlarni amalga oshirish tashabusni o'z qo'liga oldi. Harakatdagi armiyani qurol – yarog`, artileriya, snaryadlar bilan ta'minlash maqsadida 1915-yil 21-mayda Maxsus Kengash tashkil qilindi. Shu ishning 7-iyunida podsho Nikolay II tomonidan imzolangan xujatga asosan maxsus kengashga keng vakolatlar berildi.[2]

Iqtisodiy rejada Maxsus Kengashning tashkil etilishi hukumatning front va front orti talablarini bajarishida harbiy davlat tartiblaridan kelib chiqishi yo'lga o'tganligini bildirar edi.[3]

Siyosiy jixatdan esa, Maxsus Kenashning tuzulishi podsho hukumatning burjuaziya bilan munosabatlarda hamkorlikning yangi shakli bo'lib qoldi.

Maxsus Kengash faoliyat harbiy buyurtmalar ustida ishlayotgan xususiy va davlat tasarufidagi zavodlar ustidan oliy darajadagi nazorat olib borish, yangi zavodlar qurishga boshchilik qilish, Davlat mudofaa kudrati uchun ishlayotgan zavodlar

faoliyatini yanada takomillashtirish va kengaytirish bilan shug'ullanishi lozim edi. Shuningdek, kengash zimmasiga armiya kuch - qudratini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan harbiy buyurtmalarni rus va xorijiy zavodlar o'rtasida taqsimot qilish, uning bajarilishini nazorat qilish yuklatilgan edi.

Davlat organlarining mudofaani tashkil qilish, sanoatni urush ehtiyojlarini qondirish uchun muvofiqlashtirish va safarbar etishdagi roli haqida gapirganda, harbiy sanoat qo'mitalari o'rnini ta'kidlab o'tish zarur.

1915-yil 25-iyulda harbiy sanoat qo'mitasining I - s'ezda o'z ishini boshladi. S'ezd raisi yetib va keyinroq markaziy xarbiy sanoat qo'mitasining raisi etib yirik sanoatchi va bankir A. I. Guchkov, uning o'rinbosari etib A. I. Konovalov saylandilar.

Qisqa vaqt davomida barcha yirik shaharlar va sanoat markazlarida harbiy sanoat qo'mitalari tashkil qilindi. 1915-yil oxiriga kelib butun Rossiya bo'yicha 32 viloyat va 221 ta mahalliy harbiy sanoat qo'mitalari faoliyat olib borar edi.

Shunday qilib tashkil qilingan harbiy - sanoat qo'mitalari o'z amaliy faoliyatlari davomida hukumat tomonidan tasdiqlangan nizom doirasidan chiqmagan holda ish olib bordi. Armiya va dengiz flotini qurol-yarog', o'q-dori va zaruriy buyumlar bilan ta'minlashda davlatga ko'maklashish belgilandi. O'z navbatida harbiy sanoat qo'mitalari faoliyatining moliyaviy bazasi davlat avansi va qo'mita orqali taqsimlangan buyurtmalar bo'yicha 1 % gacha olingan mablag'ga asoslangan. Qo'mita bu mablag'ga o'z boshqaruv apparatini moddiy ta'minotini va boshqa sarf - xarajatlarini yuritishi lozim edi.

Ilk harbiy sanoat qo'mitalari Turkiston o'lkasining Qo'qon va Toshkent shaharlarida 1915-yilning iyul oyida tashkil qilindi. Shundan so'ng harbiy sanoat qo'mitalari avgust-noyabr oylari davomida general -gubernatorlikning Namangan, Yangi Buxoro, Samarqand, Skobelev, Ashxobod kabi shaharlarda ham tashkil topdi.

Turkiston o'lkasi yirik shaharlarining deyarli barchasida tashkil topgan harbiy sanoat qo'mitalari faoliyatini muvofiqlashtirish, tartibga solish va markazlashtirish maqsadida 1915-yil 4-oktyabrda Toshkentda qo'mita vakillarining I s'ezdi bo'lib o'tdi. Unda markazi Toshkent shahri bo'lgan O'rta Osiyo harbiy sanoat qo'mitasi tashkil etildi. Uning tarkibiga rus burjuaziyasi mustamlaka ma'muriy boshqaruv apparati va ilm fan vakillaridan iborat 83 ta a'zo kirdi. Mahalliy millat vakillaridan bor yo'g'i ikki kishi - Orifjon Mullaboev va Orifxo'ja Aziz Xojinovlar kiritildi.

Turkistonda ham paydo bo'lgan harbiy sanoat qo'mitalari faqatgina front ehtiyojlarini qondirish talablari bilan chegaralanib qolinmadi. Shu bilan birga o'z faoliyatini davomida O'rta Osiyo XSK o'lka tabiiy boyliklarini o'rganish va o'zlashtirishni, ishlab chiqish sanoatini yo'lga qo'yish kabi vazifalari bilan shug'ullandi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida qo'mita tarkibida uchta, 1. Mexanika, 2. Oziq-ovqat va buyum, 3. Tog'-kon va ximiya seksiyalari tashkil qilindi. O'rta Osiyo harbiy sanoat qo'mitasi ma'muriy jixatdan, Turkistonda korxonalarini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiy o'sishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muommolar,

misol uchun sodda usullarda yuvilib Afg'oniston va Eronga sotilayotgan oltinga boy bo'lgan shlixli* qumni to'xtatish kabi masalalar hukumat oldida ko'tarildi.

Mexanika seksiya faoliyati, 1916-yilning 1-iyuniga qadar 150 piyoda artilleriya namunasidagi ko'chma oshxona va 70000 dona qo'l granatasi korpusini tayyorlab berish buyurtmasini o'z zimmasiga oldi.

Har birining narxi 780 so'm bo'lgan 150 ko'chma oshxonani tayyorlashda, Shpranger ustaxonasi - 100 dona, hunarmandchilik bilim yurti 10 dona, Amudaryo flotilasi 40 dona qilib taqsimlandi. 50 ming qo'l granatasi korpusini tayyorlash esa qo'yidagicha taqsimlandi:

- O'rta Osiyo temir yo'l bosh ustaxonasi 70000 dona;
- Andijon qo'mitasi 5000 dona;
- Samarqand qo'mitasi 5000 dona;
- O'rta Osiyo temir yo'l qizil Arvot ustaxonasi 2000 dona
- qolgan 25000 dona qo'l granatasi korpuslari Zarya, Rozman temirchilik ustaxonalarida, Hunarmandchilik bilim yurti va Artelleriya muassasida tayyorlanishi rejalashtirildi.

Oziq - ovqat va buyum sketsiyasi armiyani o'lkada yetishtiriladigan iste'mol mollari bilan ta'minlashi belgilandi.

Qo'mita butun Rossiya Zemsk ittifoqi uchun 17000 pud miqdoridagi guruch, aynan shu tashkilotning topshirig'i bilan front oldingi chizig'i sanalgan Minskda qo'shinga 3000 dona qamishdan yasalgan bir otar miltiq jo'natildi.[4]

Shu bilan birga seksiya kalta po'stin tikish uchun 300000 dona qo'y terisini va kavkaz armiyasi qo'shiniga jo'natilgan 15000 dona jundan tayyolangan papax tayyolashda qatnashdi. Bundan tashqari Ijevsk qurol zavodlariga sovun va yog'li shag'am jo'natildi. Seksiya ko'magida Rossiya charm jamiyati zavodlariga terini oshlashda ishlatiladigan 15000 pud taran ildizi tayyorlandi.

Qo'mita tomonidan Turkistonga kauchuk sodasi va silikatlar olib kelinib yog'-moy zavodlariga taqsimlab berildi. O'z navbatida ular qo'mitaga belgilangan qat'iy narxlarda 25000 pudga yaqin sovun va yog' yetkazib berishdi.[5]

Harbiy sanoat qo'mitasining tog'-kon va ximiya seksiyasi tomonidan asosan Turkiston o'lkasi tabiiy boyliklarini o'rganish va armiya uchun zaruriy mahsulotlarni yetkazib berish maqsadida ikkita ilmiy, amaliy yo'nalishlarda ish olib bordi.

Urush harakatlari boshlangan davrdan boshlab har oyiga rus armiyasining portlovchi moddalarga bo'lgan talabi 165000 pudga yetdi. Ammo, 1915-yilda mamlakat faqatgina 60-67 ming pud portlovchi moddalar tayyolash salohiyatiga ega edi. Chunki yirik kimyogar olim V. N. Ipatevning fikriga ko'ra portlovchi moddalarni tayyorlashda ko'zlangan maqsadlarga erishish nihoyatda qiyin. Bu Rsssiyada oltingugurt kislotasi yo'qligi bilan izohlandi. Portlovchi moddalar sulfat kislotasi va toluol ishlab chiqarish bo'yicha V. N. Ipatev raisligida maxsus komissiyasi tashkil qilindi. Bu ishga xususiy tadbirkorlar shahar va zemsk boshqarmalari jalb etilib Rossiya sanoatida yangi soha

yo'lga qo'yildi.[6]

Turkiston o'lkasi tabiiy boyliklarini o'rganish va tadqiq etish, shu bilan birga Rossiya muxtojlik sezayotgan portlovchi moddalarni tayyorlashda nihoyatda zarur bo'lgan konlarni topishni asosiy vazifa qilib belgiladi. Mana shu maqsadda 1915-yilda Petrogradan geolog olim A. V. Veber o'lkaga jo'natilib qator konlarni o'rganib chiqildi.

Bu konlar :

- 1) Qo'rg'oshin va rux rudasiga boy Konsoy,
- 2) Qamish-Boshi oltingugurt, sulfat koni,
- 3) Selekatlar jinsi bo'lgan menerallarga boy Chotqol,
- 4) Qan qishlog'idagi qo'rg'oshin koni,
- 5) Asht daryosi yuqori qismidagi koni,
- 6) Selitra aniqlandi.

Qidiruv ishlari olib borish natijasida Kon-Soyda geolog razvetka ishlari olib borilib qo'rg'oshin va rux rudasi koni aniqlandi. Quvada yerdagi selitra tarkibi bo'yicha tadqiqot olib borildi va Qamish-Boshidagi sulfat kislotasi konlari aniqlandi. Qo'mitaning Samgar qishlog'idagi geologik tekshiruvlari natijasida tibbiyotda, surgu sifatida ishlatiladigan glauber tuzi mavjudligi aniqlandi. Turkiston o'lkasining turli joylarida olingan yerlarning selitra tarkibi miqdori o'rganildi.

Urush sababli qator tibbiyot mahsulotlarini tayyorlashda ishlatiladigan kimyoviy moddalarning kirib kelishini deyarli to'xtab qolgandi. O'lkaning aniqlangan tabiiy boyliklari tarkibida aynan shu zaruriy ashyolar topildi. Masalan turli gullarda o'tkazilgan tajribalar orqali minerallarni rangsizlantirib tabiiy yog'-vazelin olishga erishildi.

A. Veber tomonidan erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish yangidan - yangi konlar tadqiq etish maqsadida 1916-yilning aprelida o'lkaga Petrografika institutidan geolog A. S. Ulkonskiy minerolog olimlar N. A. Smolyaninovlar kelishdi. Ular Turkiston minerologiya boyliklarini ilmiy taxliliy tadqiqot asosida o'rganib, Rossiya iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish topshiriq qilib berildi.

Shuningdek, 1916-yilning may oyi oxirlarida Turkistonga D. I. Mushketov, V. R. Muxin va tog'-kon instituti talabalaridan iborat ilmiy tekshirish guruhi yuborildi. O'z navbatida ushbu guruhga davlat mudofaa qobiliyati uchun zarur bo'lgan o'lka foydali qazilma boyliklari o'rganib chiqib, taxlil qilish topshirilgan edi.

Shunday qilib urush sharoitida bo'lgan mamlakat harbiy salohiyatiga va portlovchi moddalar tayyorlashda zarur bo'lgan shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulot unumdorligini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega, xom ashyoni chetdan olib kelinishiga va Rossiyaning bu mahsulotga chet mamlakatlarga qaramlikdan ozod bo'lishi uchun zamin yaratildi.

Qamish-Boshida olib borilgan geologik tekshiruv natijalarida qo'rg'oshin koni

aniqlanib qazilma ishlari yo`lga qo`yildi. O`tkazilgan kimyoviy ilmiy taxlillar natijasida qo`rg`oshin tarkibida 3 % begona aralashmalar aniqrog`i 0.5 % ishqor kuli va 2.5 % butimenez uglevodorod moddalar borligi aniqlandi.[7] Ammo qo`rg`oshinning qayta ishlash ishlarini yo`lga qo`yishining umuman imkoniyati yo`q edi. Shuning uchun ham qo`rg`oshin har pudi 50 so`m qiymatida baholanib, metronaliya korxonalariga taklif qilindi.

Tarixiy haqiqat nuqtai kazaridan qaraganda shu narsani takidlab o`tish lozimki Turkistonda urush sababli O`rta Osiyo harbiy sanoat qo`mitasining bevosita sayi - harakatlari bilan tog`-kon va kimyo sanoatiga asos solindi va bir muncha rivojlantirildi. Biroq, bu mahalliy xalqlarning xo`jaligi va turmush sharoitini yaxshilash uchun xizmat qilmagan balki u urushda ishtirok etayotgan Rossiya podsholigida davlat ahamiyatga ega bo`lib rus kapitalistlarining yanada boyishi uchun keng imkonyatlar ochib berdi.

Bu o`z navbatida Rossiya hukmron doiralarning mustamlaka siyosati va rus mulkdor vakillarini Turkiston mahalliy aholisiga nisbatan olib borgan zulmining amaldagi ko`rinishlaridan biri edi.

Shuni alohida qayd etib lozimki O`rta Osiyo harbiy sanoat qo`mitasi mahalliy qo`mitalarda faoliyat yuritgan uchta seksiya orasida tog` - kon ximiya seksiyasining faoliyati samarali bo`ldi. Chunki uning tarkibida asosan ilm – fan vakillari ziyoli kishilardan iborat edi. Oziq - ovqat va sanoat buyumlari seksiyasiga ko`proq savdogarlar turli jamiyat va firma vakillari kirib o`z faoliyatlari davomida ko`proq daromad ko`rishga harakat -qilishgan.

Shunday qilib Turkiston o`lkasida faoliyat olib borgan va markaziy harbiy sanoat qo`mitasiga bo`ysungan, O`rta Osiyo harbiy sanoat qo`mitasining samarali ish olib borishi, ko`p jihatdan mahsulotlarni tayyorlash bo`yicha buyurtmalariga bog`liq edi. 1915-yildan toki tugatilgungacha bo`lgan davr ichida takidlab o`tilganidek qo`mita har biri 18 tiyin bo`lgan 70000 dona qo`l granatasi korpuslarini va 780 so`mlik 150 dona ko`chma oshxona tayyorlashga buyurtma olabildi xalos. Lekin, o`z o`rnida bu buyurtmalarni bajarish uchun ham yetarli darajada korxonalar va zavodlar mavjud emasdi. Shu bilan birga va eng asosiysi urush tufayli, ko`pgina malakali ishchi mutaxassislarining harakatidagi qo`shin tarkibiga safarbar etilganligi sababli ishchilar etishmas edi.

Hukumat va qo`mita vakillari mavjud muommoni yechishni harbiy asirlardan foydalanishi orqali hal etishga harakat qildilar. 1916-yilning iyun yoida harbiy sanoat qo`mitasi okrug qo`mitalari vaqtinchalik qo`mondoniga yozma ravishda murojaat qilib, selestrlik ishlaridan xabardor bo`lgan harbiy asirlarni o`z ixtiyorlariga berishini so`rab murojaat qilishdi.

Ishchi kuchining yetishmasligi to`g`risidan muammoni hal etishiga yordam ko`rsatish maqsadida va buyurtmalarning nihoyatda muhim ekanligini e`tiborga olgan holda, hukumat Samarqand harbiy sanoat qo`mtasi ixtiyoriga harbiy asirlardan

25 kishini, Torshkentdagi «Zarya» ustaxonasiga harbiy asirlardan 10 kishini, Markaziy qidiruv partiyasiga slesarlik qobiliyatiga ega 35 harbiy asirni, qo'l granatasi korpuslarini tayyorlash uchun Artilleriya muassasasi ustaxonalariga slesarlik va payvandchilik ixtisosligiga ega bo'lgan 20 ta harbiy asirni ajratdi.

Harbiy buyurtmalar ustida ishlayotgan korxonalarining ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoji qisman bo'lsa-da, mana shunday yo'llar bilan qondirildi.

Shartnomaga binoan qo'l granatasi korpusini tayyorlash muddati dastlab 1915-yilning 20-dekabriga mo'ljallangan edi. Ammo buyurtmaga daxldor bo'lgan chizmalar va turli xil qismlarning yo'qligi, texnik sharoitdan kelib chiqib, tayyorlash muddati 1916-yilning 1-martiga qadar uzaytirildi.

Qo'l granatasi korpuslarini tayyorlash buyurtmasining o'z muddatida bajarilmasligining yana bir sababi, qo'mita juda ko'p kerakli qismlarni Moskva, Petrograd, Xarkovdan olardi. Mana shuning uchun ham buyurtma nihoyatda sust holatda bajarilgan edi.

1916-yilning 1-fevraliga kelib, buyurtma bo'yicha olingan 50000 dona qo'l granatasi korpusining 7600 donasi topshirish uchun tayyor, 12600 donasi ehtiyot qismning yetishmasligi tufayli tugallanmagan, 19800 donasi sexlarda yig'ilmoqda va 10000 donasi hali umuman ish boshlamagan edi.

Markaziy harbiy sanoat qo'mitasi 1916-yil 17-mart kuni O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasiga yangi buyurtma 100 000 dona qo'l granatasi korpusini tayyorlashni topshirdi. Ammo dastlabki 50000 dona qo'l granatasi korpusini tayyorlash to'g'risidagi buyurtmaning o'z vaqtida bajarilmaganligi tufayli Markaziy harbiy sanoat qo'mitasi 1916-yil iyun oyida yozma ravishda 100000 donalik buyurtmaning 60000 donasini tayyorlashni to'xtatishni va qolgan 40000 donasini 1916-yilning 15-avgustiga qadar topshirishini so'raydi.[8]

Buyurtmalar ehtiyot qismlar va malakali ishchilar yo'qligi sababli o'z vaqtida bajarilmadi. Mana shuning uchun ham 1916-yil noyabrda Markaziy harbiy sanoat qo'mitasi yana 20000 dona buyurtmadan voz kechdi.

1915-1917-yillar davomida O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasining mexanika seksiyasi 70000 dona qo'l granatasi korpusini ishlab chiqdi va yetkazib berdi.

Harbiy sanoat qo'mitasi tashabbusi bilan Farg'ona viloyatining Quva hududidagi yerdan kaliy selitrasi ajratib oladigan zavod qurildi va jihozlandi.[9]

Kaliy selitrasi ishlab chikarysh bo'yicha Quva zavodining qurilishi nafaqat Turkiston o'lkasida, balki Rossiyada xam sanoat ishlab chikarilishida yangi yo'nalishni vujudga keltirdi. Ushbu zavod bir sutkada 10 pud selitra ishlab chiqarish quvvatiga ega edi.

Harbiy sanoat qo'mitasi tashabbusi bilan qidiruv ishlari olib borgan tog'-kon ishlari muhandisi Nazarovning bergan baxosiga qaraganda Farg'ona viloyati hududidagi selitra olish imkonini beradigan xom ashyo zaxirasi 1 mln. pud kaliy selitrasi olish mumkinligini ko'rsatadi. Fikriga binoan Farg'ona viloyati hududidan olinadigan

selitra va uning ishlab chiqarishini rivojlantirish eng avvalo artilleriya soxasini hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, muximi ushbu xom ashyoga nisbatan Rossiyaning chet elga bo'lgan har qanday qaramligidan ozod bo'lishiga asosiy omil va zaxira hisoblanardi.

Kaliy selitrasi ishlab chiqarishnng Rossiya sanoati uchun juda ham katta ahamiyati borligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, harbiy sanoat qo'mitasi uning ishlab chiqarish quvvatini oshirishga katta ahamiyat berdi. Ammo moddiy qiyinchilik, texnik yetishmovchilik, malakali ishchi kuchining yetarli emasligi bunga imkon bermasdi.

Mana shuning uchun ham harbiy sanoat qo'mitasining tog`-ximiya seksiyasi o`zining 1916-yil 30-sentyabrdagi majlisini maxsus shu masala muhokamasiga bagishladi. Ushbu majlisga selitra zavodi boshqaruvchisi S. I. Davidov ham taklif etildi.

S. I. Davidov o`z axborotida zavodda kam miqdorda selitra ishlab chiqarishning asosiy sabablari ustida to`xtalib o`tdi. Jumladan, bu eng avvalo selitra mavjud bo'lgan yer jinslarini yuvayotganda ko`plab miqdorda yo`qotish, pechlarning noratsional jihozlanishi, bug`lash uchun qozonlarning yetishmasligidan iborat edi. Boshqacha qilib aytganda, zavodning texnik jihozi talabga javob bermasligi, ishlab chiqarish sur'atining nihoyatda pastligi asosiy sababdir.

Seksiya mablag bilan hech qanday yordam bera olmasligi va zavodni qayta zamonaviy texnika bilan ta'minlay olmasligi uchun ham faqat ximik mutaxassis yuborishga majbur bo'ldi. Majlis zavoddagi ishlarni ko`rib chiqish va amaliy yordam berish uchun seksiya a'zosi injiner ximik mutaxassis A. R. Melik-Agamirovni 1,5 -2 haftaga borib kelishini so`radi.

Selitra zavodi tashkil etilgan kundan boshlab uning kurilishida harbiy asirlar, asosan. avstriyalik harbiy asirlar ishlashdi. Tabiiy qazilmalar qazib olish bo'yicha deyarli barcha ishlar kuch kuchi orqali amalga oshirilardi. Selitra zavodida bir harbiy asirni ishlatish tannarxi o`rtacha 80 tiyindan 1 rublgacha bo'lgan qiymatni tashkil etardi. Korxonalar vz. harbiy sanoat qo'mitasi hisobotlari va bayonnomasida qayd etilishicha, mahalliy ishchilarga qaraganda harbiy asirni ishlatish ancha arzon bo'lgan. 1916-yilning sentyabr oyiga kelib selitra zavodida harbiy asirlardan 45 kishi ishlamoqda edi.[10]

Qamish-Boshi hududidagi oltingugurt zavodida 30 kishidan iborat erkin yollanma ishchi kuchidan foydalanilgan. Ushbu zavodda rusiyzabon ishchilar bilan bir qatorda mahalliy millat vakillari ham mehnat qilishgan.[11]

Ammo shu narsani qayd etish kerakki, rusiyzabon ishchilar ish haqiga qaraganda, mahalliy millat vakillariga oid ishchilarning ish haqi bir necha baravar kam bo'lgan. Ushbu holat nafaqat Rossiya hukumatining, balki uning joylardagi muassasalari va hatto, korxonalar, zavod va harbiy —sanoat qo'mitalariga o`xshash jamoa tashkilotlari xam xukumatning mustamlaka siyosatini qo'llab — quvvatlash bilan bir qatorda, mahalliy tub aholi vakillariga nisbatan xo`rlash, kamsitish yoki boshqacha qilib

ta'riflaganda milliy zulmning turli xil ko'rinishlarini qo'llaganliklarini ko'rsatadi.

Harbiy sanoat qo'mitalari hujjatlarini chuqur o'rganish va ularning taxlili shuni ko'rsatadiki, qo'mita o'z oldiga davlat mudofaasi manfaatlari yo'lida xizmat qilish shiorini niqob qilib, ko'zbo'yamachilik siyosatini tutgan. Amalda esa qo'mita faqat burjuaziya manfaatlarini himoya qilish bilan mashgul bo'lib, urush uchun yangi - yangi mablag'larni jalb qilish bilan shugullangan va undan katta foyda olishni ko'zlashgan.

Jumladan. 1916-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasi rayosati majlisida selitra zavodini Livshiy va Verovskiylarga sotish masalasi ko'rib chiqildi, chunki qo'mita zavodni kengaytirish va ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun yetarli mablag'ga ega emasdi. Rayosat a'zosi R. S. Reyserning ta'kidlashicha, "Qo'mita ishi -amalda ko'rgazmali ishlardan iborat. Qo'mita Rossiya tarixida . birinchi bo'lib selitra ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Amaliy ko'rgazma tugadi. Har qanday ishda bo'lgani kabi, bu yerda ham hisob -kitoblarda hatolarga yo'l qo'yildi. Endi qo'mitaning mablag'i yetarli darajada bo'lmaganligi sababli ushbu zavodning davlat mudofaasi manfaatlari yo'lida yetarli miqdorda xizmat qilishi uchun imkon yetarli bo'lmaganligi va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun katta miqdordagi mablag' zarurligi uchun uni katta mablag'ga ega bo'lgan xususiy tadbirkorga berish to'g'ri bo'lardi, chunki u zavodda selitra ishlab chiqarishni ko'paytirishi mumkin".

Shu narsani aloxida ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasining boshqa seksiyalariga qaraganda tog' - ximiya seksiyasi birmuncha salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

Jumladan, ushbu seksiya garchi ibtidoiy usulda bo'lsada, uncha yirik bo'lmagan o'zining shaxsiy korxonalarini tashkil etishga muvaffaq bo'ldi. Bu bilan u Turkiston o'lkasida tog' - kon va ximiya sanoatining rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi. Tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu rivojlanish o'lka xo'jaligi va mahalliy aholi turmush sharoitini yaxshilash yo'lida umuman xizmat qilmagan, balki u qisman chor Rossiyasining urushda ishtirok etishida ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, kengroq ma'noda esa rus burjuaziyasining yanada boyishi uchun uning manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga erishildi.

Bu o'z navbatida chor Rossiyasi xukumatining mustamlaka siyosati va rus burjuaziyasi vakillarini o'lkamiz mahalliy aholisiga nisbatan olib borgan milliy zulmning amaldagi ko'rinishlari edi. O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasi mahalliy xom ashyo, tabiiy boyliklar, hatto, o'lkaning tabiat in'omlaridan sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish uchun turli xil ishqorlar, tabiiy bo'yoqlardan foydalanishga harakat qildi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda mahalliy millat vakillaridan keng foydalanildi. Hatto, juda zarur holatlarda mardikorlikka safarbar etish jarayonida, mardikorlar ro'yxatiga tushib qolganlarni ozod qilish to'g'risidagi murojaatlar bilan yuqori muassasalarga xatlar yozishgan.

O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasi Sirdaryo viloyati harbiy

gubernatori nomiga kafolat xati yozib, undan ximiya soxasiga turli xil ildizlar yig'ish bilan mashg'ul bo'lgan 34 mahalliy aholi vakillarini mardikorlikka safarbar etishdan ma'lum bir muddatga cho'zishni iltimos qilib so'raydi.

Andijon harbiy sanoat qo'mitasining oziq - ovqat va sanoat mollari seksiyasiga 1-gildiyadagi savdogar A. Temirbekov, zavod egasi U. X. Poshsho – Xo'ja, Buxoro harbiy sanoat qo'mitasi oziq - ovqat va sanoat mollari seksiyasiga paxta zavodi egasi Mirza Muxiddin Mansurov. Buxoro hukumati zavodlari boshkaruvchisi Mirza Mustafo Bo'riboev, Samarqand harbiy sanoat qo'mitasi oziq - ovqat va sanoat mollari seksiyasiga Mulla Usmon Saidov, Mulla Bahriddin Shamsiboevlar a'zo bo'lib kirishgan. [12]

Ko'plab mahalliy harbiy sanoat qo'mitalari buyurtmalarni Zemgordan olishgan. Masalan, Kaspiy orti harbiy sanoat qo'mitasi 1915-yil 15-noyabrda 3 vagon harbiylar uchun mo'ljallangan sovun va bir vagon gildirak moyi (4 rubl 20 tiyin narxida) yetkazib berish to'g'risida buyurtma olgan.

Ba'zan esa mahalliy qo'mitalar Zemgorga o'z xizmatlarini taklif etishgan. Jumladan, 1916-yil 11-oktyabrda O'rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo'mitasi xat orqali agar metall yetkazib berilsa 200 rubldan 100 dona qo'sh otga mo'ljallangan arava yasab berish mumkinligini bildiradi.[13]

Urush tufayli armiya va sanoat korxonalariga kerakli zarur mollarning keng miqdorda yetkazib berish davomida turli xil chayqovchilar paydo bo'ldi. Sun'iy ravishda kundalik ehtiyoj va talabgor mollar narxlari ko'tarib yuborildi. Masalan, mahalliy sovun 2 rubl 80 tiyin turgan bo'lsa, 1915-yilning sentyabriga kelib 1 pud mahalliy sovun narxi 6 rublga ko'tarilib ketdi. [14]

Huddi shunday xolatni, ya'ni narxlarning sun'iy ravishda ko'tarilib ketishini bo'z, guruch, mayiz,, quruq mevalar misolida ham ko'rish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy tub aholi turmushi va hayotining yanada og'irlashib ketishiga, bozorlarda narx - navoning o'sib ketishiga olib keldi.

Ushbu holatning yuzaga kelishining yana bir muxim sababi shundan iborat ediki, Rossiyaning markaziy rayonlari va turli xil sanoat qo'mitalari hamda armiyalarining agentlari va vakillari xam Turkistonga kelib oziq - ovqat , kiyim - kechak, ot - ulov, yem - xashak va shu kabi armiya va sanoat korxonalarini uchun kerak bo'lgan hayotiy zarur narsalarni g'amlash bilan shug'ullanishi natijasi edi. Pirovard natijada, bularning bari o'lkada narx - navoning keskin ko'tarilib ketishiga va ahvolning tang holatga kelib qolishiga asosiy sabab bo'ldi.[15]

Shunday kilib, harbiy sanoat qo'mitalari Turkiston o'lkasida birinchi jahon urushi yillarida Rossiyada bo'lgani kabi sanoat ishlab chiqarishini tartibga solish bo'yicha katta tadbirlarni ishlab chiqib, uni amalga oshirish borasida bir muncha ishlarni amalga oshirishga harakat qilishdi. Rossiyaning markaziy sanoat tumanlarida o'ta farqli ravishda sanoatning yangi tarmoqlarini yaratish, kichik hajmdagi sanoat korxonalarini vujudga keltirish va ularni ishga tushirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi.

Birinchi jahon urushida ishtirok etayotgan Rossiya davlatining harbiy manfaatlarini qondirish va qurol – yarog` bilan ta'minlash borasida buyurtmalar qabul qilib, uni tayyorlash borasidagi ishlarni boshlab yubordi. Ammo urush manfaatlarini shiori ostida ish olib borgan O`rta Osiyo viloyatlararo va joylardagi mahalliy harbiy sanoat qo`mitalari aslida o`z faoliyatlarida davlat manfaatlariga nisbatan burjuaziya manfaatlarini ustun qo`yishga harakat kilishdi. Harbiy sanoat qo`mitalari tomonidan o`lkada tashkil etilgan yangi zavod va korxonalar, sanoatning yangi yo`nalishlari Turkiston o`lkasi va uning mahalliy aholisi uchun na taraqqiyot, na turmush tarzi yaxshilanishiga biron -bir ijobiy ahamiyati bo`lmadi. Aksincha, bu Rossiyaning o`lkada mustamlaka siyosatini yanada kuchaytirishi va mahalliy aholiga nisbatan milliy zulmning o`ziga xos bo`lgan yangi iqtisodiy ko`rinishini qo`llash orqali xalqimiz boyligini talon - taroj qilishga va o`z cho`ntagini qappaytirishga, Rossiya davlati manfaatlarini yo`lida Turkiston o`lkasi iqtisodiyotini harbiy manfaatlar yo`lida xizmat qildirishga harakat qildi. Agar Rossiya XIX asrning ikkinchi yarmida o`lkamiz aholisiga nisbatan ma'naviy va ijtimoiy tahqirlash siyosatini yurg`izib, xom ashyoni o`z iqtisodiyoti va sanoati uchun bo`ysundirib xazinasini to`ldirgan bo`lsa, birinchi jahon urushi yillarida o`lkamiz iqtisodiyotini va tabiiy xom ashyo zahiralari harbiy manfaatlarini yo`lida xizmat qilishga o`tkazdi. Xulosa tarikasida shuni aytish mumkinki. O`rta Osiyo viloyatlararo harbiy sanoat qo`mitalari va ularning joylardagi mahalliy bo`limlari garchi o`z oldiga juda katta vazifa davlatning harbiy ta'minotini yaxshilash vazifasini qo`yganligiga qaramay, amalda harbiy ta'minotni yaxshilash borasida deyarli biron - bir hissa qo`sha olmadi. Olingan buyurtmalar to`la bajarilmadi. Buyurtmalarni tayyorlash muddati cho`zib yuborildi. Bajarilgan buyurtmalarning aksariyati esa sifat jihatdan talab darajasidan ancha past edi. Burjuaziya ushbu qo`mitalardan o`z manfaatlarini yo`lida foydalanishga muvaffaq bo`ldi. Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati birinchi jahon urushi yillarida yanada kuchaydi. Uning kuchayishi o`lka iqtisodiyoti, xom ashyosi va ijtimoiy taraqqiyotini urush manfaatlarini yo`liga o`tkazilishi va yangi - yangi tarmoqlarning tashkil etilishi bularning barchasi Turkiston o`lkasi maxalliy aholisi ahvolining yanada og`irlashuvini yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Rossiya imperiyasi hukumati o`lkada vaziyatni nihoyatda chigal holatga keltirib qo`yganligiga qaramay, urushning barcha og`irligini mustamlaka o`lkalar zimmasiga yuklashni o`ylay boshladi. Tabiiy boyliklar, yer osti va yer usti konlaridagi xom ashyo, oziq-ovqat, sanoat va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tashib ketganligi yetmagandek, endi mahalliy aholining jismoniy kuchidan ham urush manfaatlarini yo`lida foydalanish masalasini kun tartibga qo`ya boshladi. Bu nihoyatda kuchli portlash holatiga kelib qolgan vaziyatni junbushga kelishiga asosiy turtki bo`ldi.

REFERENCE:

1. Сидров А.Л. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ РОССИИ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ. - М., НАУКА. 1973. - С.55.
2. УША АСАР - Б.62
3. ЧОРИЕВ З.У. ИЗ ИСТОРИИ ВОЕННО-ПРОМЫШЛЕННЫХ КОМИТЕТОВ (ВПК) В ТУРКЕСТАНЕ. // ВЕСТНИК КАЗГУ. -А., - С. 107.
4. УзРМДА. 279-жамгарми. 1-руйхат, 65-иш, 44- зарак.
5. УзРМДА. 279-жамгарма, 1-руйхат, 65-иш, 44- варак
6. Портиллолчи. турли буюклар. лори дармонлар таёрлашда ишлатиладиган хушбуй хидга эга булган углеводород.
7. Бутим - лотинча bitumen, Смалали-ёгли, ярани самарали даволовчи табиий ва сунъий куринишдаги углеводородларнинг мумий номи.
8. УзРМДА. 279-жамгарма, 1-руйхат, 93-иш, 2- варак.
9. УзРМДА. 279-жамгарма. 1-руйхат, 30-иш, 90- варак.
10. УзРМДА. 279-жамгарма, 1-руйхат, 49-иш, 18-варак.
11. УзР МДА. 279-жамгарма, 1-руйхат, 24-иш, 66-варак.
12. УзР МДА 279-жамгарма, 1-руйХат, 24-иш, 1-варак.
13. УзРМДА. 279-жамгарма, 1-руйхат, 20-ИШ, 9-10-вараклар.
14. УзРМДА. 279-жамгарма, 1-руйХат, 25-иш, 20-вараклар.
15. УзРМДА. 279-жамгарма, 1-руйХат, 46-иш, 146-вараклар.